

O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODI VA YOZMA ADABIYOT MUNOSABATLARI

Karimova Sevara Zayniddinovna

Samarqand davlat universiteti Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi

2-bosqich magistranti

Tel: (99) 599-01-24

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodi, uning yozma adabiyot bilan o'zaro munosabti, o'zbek xalq ertaklarining janr xususiyatlari, poetikasi tahlil qilingan. Shuningdek, folklor janrlarining bola tarbiyasidagi ahamiyati hamda ertaklarning turli ko'rinishdagi ta'sirlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: folklorshunoslik, adabiyot, ertak, cho'pchak, tarbiya, tafakkur, badiiy adabiyot, ma'naviy meros, poetik tafakkur.

UZBEK PEOPLE'S ORAL CREATION AND WRITTEN LITERATURE RELATIONS

sevarzayniddinovna@gmail.com

Karimova Sevara Zayniddinovna

Samarkand State University, Faculty of Philology, Department of
Uzbek language and Literature, 1st second master
sevarzayniddinovna@gmail.com

Annotation

This article analyzes Uzbek folklore, its interaction with written literature, genre features and poetics of Uzbek folk tales. The importance of folklore genres in the upbringing of children and the various influences of fairy tales were also discussed.

Keywords: folklore, literature, fairy tales, upbringings, thinking, fiction, spiritual heritage, poetic thinking.

УЧНОЕ ТВОРЧЕСТВО И ПИСЬМЕННЫЕ ЛИТЕРАТУРНЫЕ СВЯЗИ УЗБЕКСКОГО НАРОДА

Каримова Севара Зайниддиновна Самаркандский
государственный университет, филологический факультет кафедра
узбекского языка и литературы магистр 2-й ступени
sevarzayniddinovna@gmail.com

Аннотация

В данной статье анализируется узбекский фольклор, его взаимодействие с письменной литературой, жанровые особенности и поэтика узбекских народных сказок. Также обсуждалось значение фольклорных жанров в воспитании детей и различные влияния сказок.

Ключевые слова: фольклор, литература, сказки, сказки, воспитание, мышление, художественная литература, духовное наследие, поэтическое мышление.

Buyuk ajdodlarimiz poetik tafakkuri mahsuli bo'lmish o'zbek folklori milliy qadriyatlarimizni asrabavaylash, kelgusi avlodga yetkazish, bugungi xalqimiz ma'naviy ehtiyojini qondirish yo'lidagi eng muhim manba hisoblanadi.

M.Qoshg'ariy zamonidan bugungacha o'rganilib, tahlil va tadqiq qilib kelinayotgan folklore asarlari: maqol, matal, latifa, topishmoq, ertak kabilar yosh avlod ongida obrazli badiiy tafakkurning shakllanishini ta'minlaydi.

O'zbek xalq ertaklari yaxshilikning yovuzlik ustidan g'alaba qozonishiga ishonchni kuchaytiradi. Tafakkuri shakllanib kelayotgan bola tasavvurini boyitadi, yaratuvchanlik qobiliyatini o'stiradi, idrokini kengaytiradi. Shu bois ham ota-bobolarimiz azal-azaldan farzand tarbiyasida bir-biridan qiziqarli syujetlarga boy ertaklarni aytib berishga alohida e'tibor qaratib kelgan. Bola qanchalik erta xalq og'zaki ijodi bilan yaqinlashtirilsa, shuncha foydali bolishini asoslab berishgan. Darhaqiqat, ezgu g'oyalarga yo'g'rilgan, hayot qiyinchiliklarini o'tkir zehn, aql-idrok, halollik, adolat bilan yengib o'tajak qahramonlarga boy, yakuni doim yaxshilik bilan tugovchi ertaklar, bolaning tarbiyasiga juda kuchli ta'sir etadi. Ularda endi-endi bo'y ko'rsatayotgan yolg'onchilik, maqtanchoqlik, dangasalik, og'irlik, qo'rroqlik kabi salbiy xarakter xususiyatlari o'rnida to'g'riso'zlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, halollik, mard va jasurlik kabi ijobjiy fazilatlar kamol topadi. Ertaklarning mavzu jihatdan turlari ko'p. Bolalar ular orasida, ayniqsa, hayvonlar haqidagi ertaklarni yaxshi ko'radilar.

Ertaklarning yana bir muhim xususiyati shundaki, bu ularni hali mavhum fikrlashga qodir bo'lмаган bolalar tomonidan olamni idrok etilishini osonlashtiradi. Ertaklar har doim ibratlari va tarbiyalovchidir.

Bilamizki, farzand tug'ilib, to voyaga yetgunga qadar oila, ta'lim-muassasasi va atrofdagi ijtimoiy muhit ta'sirida shaxs sifatida kamol topadi. Mana shu mas'uliyatlari va murakkab jarayonda tarbiya usullaridan eng bebahosi – kitob mutolaasi ekanligini allaqachonlar anglab yetganmiz. Shuning uchun ham bolani juda erta yoshdan kitobni sevishga o'rgatish maqsadida ularga aql-zakovat mo'jizasi bo'lgan ertaklarni aytib berishdan erinmaslik kerak. Negaki ertaklarda oilaviy tarbiyaning umumiy shartlari tahlil qilingan, axloqiy tarbiyaning taxminiy mazmuni aniqlangan. Ertak qahramonlarning taqdirlini kuzatish, ajoyib vaziyatlar, ajoyib tasvirlar tilini sezgan holda bolaning ongi-shuuri rivojlanadi.

Haqiqiy ertakning belgisi - bu yaxshi yakun. Bu bolaga psixologik xavfsizlik hissini beradi. Ertakda nima bo'lishidan qat'iy nazar, hamma narsa yaxshi yakunlanadi. Ma'lum bo'lishicha, qahramonlarning boshiga tushgan barcha sinovlar ularni yanada kuchliroq va dono qilish uchun zarur bo'lgan. Boshqa tomonidan, bola yomon ish qilgan qahramon, albatta, munosib bo'lgan narsaga erishishini ko'radi va barcha sinovlardan o'tgan, eng yaxshi fazilatlarini namoyish etgan qahramon doim mukofotlanadi.

Folklor asarlarining yozma adabiyot bilan aloqasi tilimiz lug'at boyligida namoyon bo'ladi. Unda biz unutilib borayotgan urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimiz, so'zlarimiz o'z ifodasini topadi. Xalqning boy madaniy merosini saqlab qolish, ma'naviyat sarchashmalarini bezavol avlodlarga yetkazishda, albatta, yozma adabiyotning ahamiyati beqiyos. Badiiy adabiyot paydo bo'libdiki, xalq og'zaki ijodi bilan oziqlanadi, uning go'zal namunalari qayta ishlanib, sayqallashadi. Chunki yozuvchi kitobxonni o'z ijodiga qiziqtrishi uchun unga tanish olam manzaralarini ham sigdirishi lozim. Ana shunda kitobxon yozuvchining aytganlariga ishonadi, asar syujetini maroq bilan o'qiydi. Qaysiki ijodkor folklor an'analari ichida yashagan, uni o'ziga singdirgan bo'lsa, o'sha ijodkorning asari tili jihatdan ham ancha mukammal ekanligi kuzatiladi. Zero, milliy ong va tafakkurning shakllanishida badiiy asarning o'rni beqiyos.[3; 11-bet]. Biz tadqiq etayotgan folklorning ertak janri ham juda ko'p ijodkorlar qalamini charxlashda muhim vosita bo'lib kelgan. Hattoki o'zbek she'riyatining sultonni bo'lgan A. Navoiy ham bir g'azalida cho'pchak so'zni qo'llagan:

Habibim husni vosita uyla muhlikanglakim bo'lg'ay,

Qoshinda qissaii Yusuf bir uyqu keltirur cho'pchak.[1; 108-bet]

XX asr o'zbek abdiyotining yirik darg'alari H.Olimjon, M.Shyxzodalar ijodida ham ertaklar syujetiga xos jihatlariga guvoh bolamiz. Masalan, H.Olimjon 1937-yilda yozilgan "Oygul bilan Baxtiyor" ertak-dostonida xalq ertaklarining jozibasini qayta jonlantirgan. Xalq ertaklarining badiiy ijod namunalarida o'z ifodasini topishi asarning yanada o'qishli bo'lishi va umrivoqiyligini ta'minlaydi.

Ertaklar bola hayotida ajralmas narsadir. Ularning roli juda muhimdir. Ular nafaqat bolani asir qilish vositasi, balki uni rivojlantirishga, tarbiyalashga va psixologik muammolarini hal qilishga qodir. Ertakni o'qish yoki tinglash orqali bolaning odob-axloqli qilish bilan birgalikda unga dunyoning ko'p qirralilagini va u bilan birligini his qilishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ertak dunyosi bola tasavvurini uyg'otadi, haqiqat, adolat, erkinlik uchun kurashishga undaydi, yaxshilik, yovuzlik haqida birinchi tushunchalarini beradi. Ertak orqali bola o'zi tug'ilgan va yashagan dunyo qonunlarini tushuna boshlaydi. Mo'jizalar olamida yashagan bola atrofdagilarga hech qachon yomonlik qilmaydi, hayotga muhabbat oshadi, eng muhim, qiyinchiliklarda esankirab qolmaydi. Biz uchun oddiygina tuyulgan bu janr bola ruhiyatiga juda kata ta'sir ko'rsatishini unutmaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi.// O'quv qo'llanma. – T.: Mumtoz so'z. 2010, 108-bet.
2. Jo'rayev M. Folklorshunoslik asoslari. // O'quv qo'llanma. T.: 2008.
3. Jo'rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. // O'quv qo'llanma. – T.: 2017. 11-bet.
4. Afzalov M. O'zbek xalq ertaklari. Qisqacha ocherk. – T.: 1964.
5. O'zbek xalq og'zaki ijodi bo'yicha tadqiqotlar. 7-kitob. O'zbek folklorining epik janrlari. – T.: Fan, 1981.